

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI



BIZNES ANALITIKA
fanidan

SILLABUS

Bilim sohalari: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohalari: 410 000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60410800 – Menejment

Toshkent – 2025

Fan nomi:	Biznes analitika
Fan turi:	tanlov
Fan kodi:	
Bosqich:	2
Semestr:	3
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	150
Ma'ruza	30
Amaliy mashg'ulotlar	30
Seminar	-
Mustaqil ta'lim	90
Sinov birligi miqdori:	5
Baholash shakli:	yozma
Fan tili:	O'zbek

Dastur mualliflari:	Kurbanova Maftuna Lazizovna
E-mail:	maftunayusuf2020@gmail.com
Telefon raqami:	+99890 350-23-33
Tashkilot:	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, "Pochta aloqasi texnologiyasi" kafedrası

Kurs haqida qisqacha ma'lumot (QM)

QM1	<p>“Biznes analitikasi” fanini o‘qitishning maqsadi – talabalarda axloqiy, madaniy ehtiyojlarni qondirish uchun ularning faol hayoti, ularning fuqarolik o‘zini o‘zi belgilashi, kasbiy rivojlanishi va ijodiy faoliyatda individual shaxsiy o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratish orqali umuminsoniy, umumiy kasbiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan o‘quv fazilatlarini, qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonun ustuvorligini birligi va mustahkamlash, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, huquqiy normalarni amalga oshirish, huquq-tartibotni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga qodir bo‘lgan ijtimoiy va kasbiy malaka oshirish. Kompaniyaning ofis ish jarayonlarini tahlil qilish eng muhim boshqaruv vositalaridan biri bo‘lib, kompaniyaning barcha sohalari va bo‘linmalaridagi ishlarning hozirgi holati haqida ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda biznes analitikasi bo‘yicha bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasi hosil qilinadi. Bunda biznes analitikasi fani bo‘yicha nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, biznesning qo‘llanishi jarayonlariga uslubiy yondoshuv (dialektik, tanqidiy, tahliliy, tizimli va hakoza) hamda ilmiy dunyoqarash shakllantiriladi, qonunlar va kategoriyalar mazmun-mohiyatini o‘rganiladi, ularga nisbatan shaxsiy munosabat shakllantiriladi, biznesning inson hayotidagi o‘rni va ahamiyati tushuntiriladi, ochib beriladi va amaliyotda qo‘llash o‘rgatiladi.</p>
------------	--

Kursga qo'yiladigan boshlang'ich talablar

1.	Talablar mavjud emas
Ta'lim natijalari (TN)	
TN1	Korxonalarining biznes analitikasi va uning mohiyati, xususiyatlari bila oladi;
TN2	korxonada biznes analitikasi asoslarini. zamonaviy kompaniyalarda biznes tahlilining rolini tushuntira oladi;
TN3	biznes tahlilining strategik va operatsion jihatlarini tushuna oladi va tushuntira oladi;
TN4	biznes analitikasining nazorat qilish mexanizmlarini tushuntira oladi;
TN5	biznesni tahlil qilishning turli usullarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladi;
TN6	biznes jarayonlarini modellashtirish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)		soat
M1	«Biznes analitikasi» faniga kirish	2
M2	Biznesni boshlash va uni rivojlantirish	2
M3	Ma'lumotlarni tahlil qilish	2
M4	Biznes analitikasi usullari	2
M5	Biznes jarayonlari analitikasi boqichlari	2
M6	Biznesda operatsion analitikani boshqarish	2
M7	Biznes analitikasini tashkil etuvchi vositalar	2
M8	Analitikada maxfiylik siyosati	2
M9	Biznes tahlilda statistika	2
M10	Regressiya tahlili	2
M11	K-NN va Naif Bayes algoritmlari	2
M12	Nazoratsiz ma'lumotlarni topish. Ierarxik klasterlar	2
M13	Vaqtini bashorat qilish	2
M14	Biznesni optimallashtirish	2
M15	Biznesni simulyatsiya qilish	2
Jami		30
Mashg'ulotlar shakli: amaliyot (A)		
A1	Biznes analitikasi fanining predmeti va maqsadi	2
A2	Korxonada biznes analitikaning o'rni va vazifalari	2
A3	Ma'lumotlarni tahlil qilish va jadvashtirish	2
A4	Biznes analitikasi usullarini ko'rib chiqish	2
A5	Biznes jarayonlari analitikasi boqichlarini tahlil qilish	2
A6	Biznesda operatsion analitikani boshqarish metodlari	2
A7	Biznes analitikasini tashkil etuvchi vositalar tahlili	2
A8	Analitikada maxfiylik siyosatini amalga oshirish	2
A9	Biznes tahlilda statistik ma'lumotlardan foydalanish	2
A10	Regressiya tahliliga misollar sihlab chiqish	2
A11	K-NN va Naif Bayes algoritmlarini o'rganish	2
A12	Nazoratsiz ma'lumotlarni topish. Ierarxik klasterlar	2
A13	Vaqtini bashorat qilish usullarini o'rganish	2
A14	Biznesni optimallashtirish yo'llarini ko'rib chiqish	2
A15	Biznesni simulyatsiya qilishni o'rganish	2
Jami		30

Mustaqil ta'lim (MT)		soat	hisobot shakli
MT1	Korxonaning analitikasi uchun huquqiy va me'yoriy asoslar	10	prezentatsiya
MT2	biznes analitikasida risklar	10	CASE STUDY
MT3	Analitikada mahfiylik siyosati	10	Mustaqil ish
MT4	Analitikaning biznes jarayonlariga ta'siri	10	prezentatsiya
MT5	Korxonaning boshqaruvida biznes faoliyati	10	SWOT analiz
MT6	Analitik platformani yaratish (rejalashtirish, tashkil qilish, foydalanish)	10	Korxonalardan misollar keltirish
MT7	Biznes jarayonlarini tahlil qilishning asosiy usullari	10	Tahlil namunalardan misollar keltirish
MT8	Biznes jarayonlarini optimallashtirishning asosiy usullari	10	Ikkita korxonaning misolida yoritib berish
MT9	Biznes analitikasining boshqaruv mexanizmlari	10	Mustaqil ish
Jami		90	

Bu vazifalarga quyidagilar kiradi:

1) nazariy materialni mustaqil o'rganish. Ma'ruza matni va tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalaniladi. Fikrlash qobiliyatining mavjudligi ma'lumotni umumlashirish va tahlil qilish va unga erishish yo'llarini tanlashga yordam beradi;

2) ko'rsatilgan mavzulardan biri bo'yicha referat tayyorlash. Ma'ruza matni, amaliy mashg'ulotlar uchun ko'rsatmalar va tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalaniladi.

Mustaqil ishini baholash:

1) **SWOT-tahlil:** korxonalarining kuchli va zaif tomonlari va imkoniyatlari, risk risklari tahlil qilinadi.

2) **mustaqil ish:** nazariy material mustaqil o'rganiladi, tahlil qilinadi, adabiyotlardan foydalaniladi, shuningdek, fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi, axborotni umumlashirish va tahlil qilishga hamda unga erishish yo'llarini tanlashga yordam beradi;

3) **taqdimot:** umumiy ma'lumotlardan asosiy ma'lumotlarni ajratib ko'rsatish, taqdimot qilish qobiliyati shakllanadi.

4) **vaziyat tahlili:** o'qituvchi tomonidan mavzuga oid vaziyatlarni tahlil qilish natijasida unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi.

5) **amaliy ish tayyorlash:** u korxonalarining motivatsion jarayonlarni qanday amalga oshirishi va ularning xodimlarga qanday ta'sir qilishi natijasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini o'rganadi.

Rejada fan bo'yicha kurs ishi ko'rsatilmagan.

Ta'lim strategiyasi

"Biznes analitikasi" fanini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari, videoma'ruzalar, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha vazifalar va mustaqil ishini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, laboratoriya ishlariga oid o'quv materiallarida ko'rsatilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy ma'lumotlar beriladi. laboratoriya ishlarini bajarish va natijalarni hisoblash tartibi tushuntiriladi. Fan bo'yicha

qo'yilgan o'quv materiallari talabalar tomonidan mustaqil o'rganiladi, laboratoriya ishlari talabalar tomonidan individual yoki kichik guruhlar tarzda bajariladi.

Talabalar quyidagi materiallardan foydalanish imkoniga egadirlar:

- Videoma'ruzalar;
- Elektron shakldagi ma'ruza matnlari;
- Har bir mavzuga doir prezentatsiya slaydlari;
- Har bir dars mavzusi yuzasidan topshiriqlari;
- Elektron shakldagi darsliklar va qo'llanmalar.

Nazariy mashg'ulotlar davomida, talabaga videoma'ruza orqali mavzu yuzasidan kerakli bo'lgan konsepsiyalar yetkazib beriladi. Talabalarga mavzuni yanada mustahkamlashlari uchun prezentatsiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari va boshqa o'quv-uslubiy mahsulotlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Amaliyot mashg'ulotlarida har bir mavzu bo'yicha topshiriqlarni hisoblash bo'yicha bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar talabalarga taqdim etiladi. "Mobil" fani bo'yicha topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarda keltirilgan ishlarni bajarish talab etiladi. Topshiriqni bajarish bilan keyingi mavzu bo'yicha topshiriqni bajarishga o'tiladi.

Mustaqil ishda talabalar eng istiqbolli simsiz texnologiyalar bo'yicha mustaqil referatlar tayyorlaydi va himoya qiladi. Har bir talabaga alohida o'z topshirig'ini bajaradi.

Ma'ruza, amaliyot va laboratoriya mashg'ulotlarining barcha mavzularini to'la o'zlashtirgan hamda mustaqil ishni bajargan talabalarga yakuniy nazoratda ishtirok etishga ruxsat etiladi. Talaba semestr oxirida yakuniy nazorat topshiradi.

Talabalar bilimni baholash

Talabalar bilimni baholash semestr davomida o'quv materiallarini o'zlashtirish ko'rsatkichlari va yakuniy nazorat (test natijalari, topshiriqlar va yozma ish) bo'yicha amalga oshiriladi. Ushbu kurs davomida talabalar 100 ballik tizimda baholanadi. Shundan 50% ball davomat, joriy va oraliq, 50% ball yakuniy nazorat natijalariga ko'ra taqsimlanadi. Joriy va oraliq ballar bo'yicha 30 balldan kam to'plagan talabalar yakuniy nazorat imtihoniga kiritilmaydi. Yakuniy testda 30 va undan yuqori ball to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

Reyting baholash turlari		Ball	O'tkazish vaqti
	Oraliq nazorat	9 ball	13-hafta
1.	1-Topshiriq. Tashkilotlar (aniq korxonalar) analitikasi va qadriyatlarini 5-misoldan foydalangan holda tahlil qilish Vazifa yoritilishida individual yondoshuv bo'lishi kerak. Baholash mezon: Umumiy ball – 7 ball - barcha bo'limlarni to'g'ri taqsimlash-3 ball; - mavzuning to'liq yoritilganligi – 2 ball; himoya qilish – 2 ball.	7 ball	2-3 hafta
2.	2- Topshiriq. Korxonalaridagi ziddiyatli vaziyatlarni tahlil qilish va ularni hal qilish yo'llari Vazifa yoritilishida individual yondoshuv bo'lishi kerak. Baholash mezon: Umumiy ball – 7 ball - barcha bo'limlarni to'g'ri taqsimlash3 ball;	7 ball	6-7 hafta

	- mavzuning to'liq yoritilganligi – 2 ball; himoya qilish – 2 ball.		
3.	3-Topshiriq. Notiqlik qoidalaridan foydalangan holda analitika madaniyati haqida 5 daqiqalik monolog tayyorlang Vazifa yoritilishida individual yondoshuv bo'lishi kerak. Baholash mezon: Umumiy ball – 5 ball - barcha bo'limlarni to'g'ri taqsimlash-2 ball; - mavzuning to'liq yoritilganligi – 1 ball; himoya qilish – 2 ball.	7 ball	10-11 hafta
	Jami	30	
Amaliyot topshiriqlari			
1.	1-Topshiriq. Biznes jarayonlarida ish uchrashuvlari, intervyular, muzokaralar uchun asosiy axloqiy talablarni tayyorlash, ularni o'tkazish, taqdimotlarni tayyorlash va tahlil qilish Baholash mezon: Umumiy ball – 5 ball - barcha bo'limlarni to'g'ri taqsimlash-1 ball; - mazmunning mavzuga muvofiqligi – 2 ball; - himoya qilish – 2 ball.	5 ball	
2.	2-Topshiriq. "Uzbektelekom" AKning bo'limlarida biznes statistikasi qanday amalga oshirilganligi haqida yozma ravishda ma'lumot tayyorlang Baholash mezon: Umumiy ball – 5 ball - mazmunning mavzuga muvofiqligi – 2 ball; - himoya qilish – 3 ball.	5 ball	
3.	3-Topshiriq. Alskom kompaniyasining raqobatbardosh va operatsion strategiyalarini tahlil qiling, moliyaviy tahlil haqida hisobot tayyorlang. Baholash mezon: Umumiy ball – 5 ball - mazmunning mavzuga muvofiqligi – 2 ball; - himoya qilish – 3 ball.	5 ball	
4.	4-Topshiriq. Yuqoridagi aloqa korxonalaridan ixtiyoriysini tanlab, u uchun qaror qabul qilishda risk tahlilni amalga oshiring Baholash mezon: Umumiy ball – 5 ball - - mazmunning mavzuga muvofiqligi – 2 ball; - himoya qilish – 3 ball.	5 ball	
	Joriy nazorat bo'yicha jami ball	20	
	Yakuniy nazorat bo'yicha maksimal ball	50	
	Jami:	100	

Asosiy adabiyotlar

1. В. В. Дудихин, О. В. Дудихина. Конкурентная разведка в Internet : советы аналитика. - М. : ДМК, 2002. - 192 с. : ил. - Алфавит. указатель: с. 392-400. - 1 экз.. - 15268 р. - Текст : непосредственный.

2. Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Коммерческий портфель : книга коммерческого менеджера; книга аналитика; книга коммерсанта. - М. : Соинтек, 1995. - 748 с. - (Портфель делового человека). - 1 экз.. - 1000 р. - Текст : непосредственный.

3. Z. M. Otakuzieva, S. G. Raximova Ish yuritish analitikasi : o'quv qo'llanma. - O'z R RT vazirligi, TATU . - Toshkent : Metodist nashr., 2024. - 212 с. - Adabiyotlar ro'yxati: b. 200. - 60 (adadi 300) экз.. - ISBN 978-9910-03-201-1 : 54275.2 р. - Текст : непосредственный.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Text Book from McGraw Hill: Business Analytics: 2nd Edition, By Sanjiv Jaggia and Alison Kelly and Kevin Lertwachara and Leida Chen, ISBN10: 1264302800, ISBN13: 9781264302802, Copyright: 2023

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi 2019 yil 8 yanvardagi, PF-5614-sonli Farmoni

3. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-6079-son, 05.10.2020 y.).

Internet resurslari

1. <https://web-app.usc.edu/soc/syllabus/20233/16324.pdf> (university of Southern California - USA sillabusidan olingan)

2. <http://blackboard.usc.edu>

3. <http://libguides.usc.edu/go.php?c=9231877>)

4. <https://hbsp.harvard.edu/import/1071514>

Mazkur sillabus universitet Kengashining 2025 - yil 29.04 dagi 8/9 (7/10/7/11) - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.


Mazkur sillabus "AKT sohasida iqtisodiyot va menejment" fakulteti Kengashining 2025 - yil 28.04 dagi 10 - sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus "Menejment va marketing" kafedrasining 2025-yil 25.04 dagi 9 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'MB boshlig'i

Kafedra mudiri

Tuzuvchi



A. K. Ergashev

G. F. Ismoilova

M. L. Kurbanova



